



# МУГАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ

Илимий-методикалық журнал





## МАЗМУН

### ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

- Raximova N.** Xorijiy tilni o'qitish sharoitida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati
- Atamuratov R.** Raqamli transformatsiya - ta'lim samaradorligining asosi
- Norov N.** Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlarida adolat kategoriysi
- No'monxonova M.** Axborot texnologiyalari va bo'lajak tilshunoslaming kommunikativ kompetensiyalari metodikasini rivojlantirishi va hozirgi holati
- Суюнов Б.Т.** Тезаурус – лингвистик тараккиёт омили
- Shosgorov A.M.** Hamid Olimjonning takrordan foydalanish mahoratiga doir
- Fayzimatova N.** Kinship terms and teknonymy
- Nazarova R.** Effectiveness of teaching through riddle
- Nishonova Sh.** The role of gestures in effective communication

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

- Tilegenov A.T.** Yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning metod va vositalari
- Xalikov F.** Ta'lim tizimida testologik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik mazmuni
- Rasulova G.** Adabiy ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish
- Baisov A.** Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish muammolari
- Mirsultanov I.M., Xasanov A.R.** O'qituvchilik kasbida barqarorlikni shakllantirish muammosining mavjud holati
- Umarova G.** Integrativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik zarurati
- Jo'raev Yu.K.** Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida elektrotexnika fanini o'qitishda ta'lim usullaridan amaliy foydalanish yo'llari
- Yo'Idosheva D.** Kreativlikni rivojlantirish muammosiga doir xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili.
- Tojiboyev J.** Kreativ yondashuv asosida talabalaming badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish mazmunini belgilashning pedagogik talablari
- Siddiqov B.** O'quvchilarning aksiologik kompetentligini rivojlantirish tushunchasi va tahlili
- Mexmonaliyev Sh.N.** Husayn Voiz Koshifiy ijodida axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishi
- Muminova D.** Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishda shaxsga yo'naltinilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.
- Axmedov B.A.** Muammoli ta'limda suqrotona yondashuv metodikasi
- Bobomurodova L.E.** Talabalaming kasbiy-metodik ijodkorligini rivojlantirish
- Abdusattorov A., O'rinoval N.** O'zbek xalq cholg'ulari orkeстiri vositasida bo'lajak musiqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodlari
- Aliyeva M.** Pedagogik amaliyat jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashirish
- Ражабов X.** Рақамли таълим мухитида бўлажак кимё ўқитувчилари ахборот-методик компетентлигини тақомиллаштириш муаммоси
- Saydullayeva A.** Ta'limda gender madaniyatni rivojlantirishda ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik-psikologik ahamiyati
- Mamayusupov J.** Analistik tafakkurni rivojlantirishda pedagogning intellektual faolligi va uning o'ziga xos xususiyatlari
- Toshaliyev D.** Milliy musiqiy meros va unga o'quvchilarda aksiologik munosabati shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari
- Shermatova Y.S.** Biologiya fanini o'qitishda zamонавиј metodlar

Мазкур мақолада, тезаурус ва унинг турлари, шунингдек лугатчиликка компьютер технологияларини татбик этиш хусусида фикр-мулоҳаза юритилган. Муаллиф мавзуни ёритишида ўзбек ва рус тилидаги илмий маңбалар ҳамда турли хилдаги лугатлар ва илмий тадқиқот ишларидан максадли фойдаланган. Ўрни билан маълум тушунча ва ҳодисаларни тадқиқловчи мисоллар ва далилларга мурожаат килиб, мавзу юзасидан тегишли илмий холосалар чиқарган ҳамда амалий тавсиялар берган.

Айниқса, мақолада тезаурус тушунчасини бошқа лугат турларидан фарқлаб олишга алоҳида эътибор қаратилган. Бу эса унинг илмий-назарий ва амалий аҳамиятини оширишга хизмат қиласди.

## РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается тезаурус и его виды, а также применение компьютерных технологий к словарю. Для освещения темы автор целенаправленно использовал научные источники на узбекском и русском языках, а также различные словари и научные исследования. Вместо этого, ссылаясь на примеры и доказательства, подтверждающие те или иные концепции и события, он делал соответствующие научные выводы и давал практические рекомендации.

В частности, в статье акцентируется внимание на отличии понятия тезаурус от других типов словарей. Это служит повышению ее научно-теоретической и практической значимости.

## SUMMARY

This article discusses the thesaurus and its types, as well as the application of computer technology to the dictionary. To cover the topic, the author purposefully used scientific sources in Uzbek and Russian, as well as various dictionaries and scientific studies. Instead, by citing examples and evidence supporting certain concepts and events, he drew appropriate scientific conclusions and made practical recommendations.

In particular, the article focuses on the difference between the concept of a thesaurus and other types of dictionaries. This serves to increase its scientific, theoretical and practical significance.

## HAMID OLIMJONNING TAKRORDAN FOYDALANISH MAHORATIGA DOIR

Shofqorov A.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasini  
mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Tayanch so'zlar:** takror, fonetik takror, grammatic takror, leksik takror, shukantar, badiiy takror, stilistika, stilistik xususiyatlar.

**Ключевые слова:** повтор, фонетический повтор, грамматический повтор, лексический повтор, "мукаррап", художественный повтор, стилистика, стилистические особенности.

**Key words:** repetition, phonetic repetition, grammatical repetition, lexical repetition, "muкаррап", artistic repetition, stylistics, stylistic features.

Badiiy adabiyotda, badiiy tasvirda ifoda vositalari badiylikni ta'minlovchi asosiy mezon hisoblanadi. Ayniqsa, she'riyatda bu muhim hisoblanadi. Badiiy asarda qo'llangan til birliklari boshqa uslublardagiga nisbatan uslubiy vazifa bajarishi, emotional-ekspressivlik vazifasining yuqoriligi bilan farqlanib turadi. Bu badiiy asar matnidagi badiiy tasviriy vositalarning o'ziga xos semantik-stilistik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Shunday ifoda vositalaridan biri takrordir.

Takroming barcha turlari, ko'rinishlari singari leksik takrorlar ham o'z ifoda shakliga va tasvir usuliga ega. Badiiy matnda, xususan, poetik mutqda leksik birliklar turli shakllarda namoyon bo'ladi va fikr talabiga ko'ra xilma-xil vazifalarni ado etadi.

Mukarrar badiiy san'atlarning takror usullaridan biri bo'lib, bunda takroriy so'zning qaytarilishi kuzatiladi. "Mukarrar so'zi qayta-qayta, ust-ustiga ma'nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san'at esa baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llashni nazarda tutadi". [1; 100]. Bu haqda Atoullohu Husayniy shunday yozadi: "Rashid-i Vatvot deputurkim, shuaro mukarrar deb andoq she'mi ayturlarkim, bir baytta bir lafzni keltirurlar va o'zga baytta aning ta'sirida o'shil lafzni yana keltirurlar...". [2; 174].

Shunday qilib, mukarrar takroriy so'zning misra, bayt yoki bandda takrorlanishidir. Ma'lumki, juft va takroriy so'zlar alohida-alohida, farqli tushunchalardir. Juft so'z bir turkumga oid ikki so'zning birikishidan hosil bo'ladi. Takroriy so'zlar esa bir so'zning takror qo'llanishi natijasida yuzaga keladi. Bunda qo'llangan takroriy so'z shu misraning o'zida, bayt yoki bandda takrorlanishi mumkin. Shuningdek, misra, bayt, bandda ikki xil shakldagi takroriy so'z qo'llanishi ham mukarrar takrorini yuzaga keltiradi. Zero, badiiy asardagi har qanday takror ma'lum maqsadda qo'llanib, uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Aks holda u badiiylikni ta'minlamaydi. Aslida so'zning odatdagagi har qanday uslubda takroriy qo'llanishida ham oddiy takror qo'llanishidan farqli tomonlar mavjud bo'ladi. "Takroriy so'z deganda har qanday so'zning oddiy takrori emas, balki bir so'zning takror holda qo'llanishi bilan shu so'zning leksik ma'nosidan tashqari ma'lum grammatik ma'nolar (ko'plik, davomiylik kabi ma'nolar) ifodalovchi, leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi takrorlar tushuniladi". [3; 88]

Mumtoz adabiyotimizda, shuningdek, hozirgi zamon o'zbek adabiyotida mukarrar takrorining turli xil shakllarini uchratamiz. Bu takrorning Hamid Olimjon she'riyatida o'ziga xos shaklda namoyon bo'lgan holatlari uchraydi. Sho'ir she'riyatidagi bunday takrorlarni qaytarilish o'miga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: bir misrada va misralararo qo'llangan takrorlar.

1. Hamid Olimjon she'riyatida takroriy so'zlar bir misrada birdan ortiq qo'llanib, uslubiy vazifa bajarib kelgan. Bunda ma'lum bir misrada takroriy so'zlar yonma-yon qo'llanishi yoki misraning turli o'rinalarda takror kelishi mumkin. Sho'irning "Yodgorlik", "Yil boshi orzulari", "Askarday", "Yorti asr qo'shiqlaridan" kabi she'rlarida misradagi takroriy so'zlar yonma-yon qo'llangan bo'lsa, "Cho'l kechasi", "Qush" kabi she'rlarida misraning turli o'rinalarda takroriy so'zlar qo'llangan. Jumladan, "Yil boshi orzulari" she'rida qo'llangan takroriy so'zlar ko'plikni bildirishi bilan birga ma'noni kuchaytirishga, uni bo'ittirishga, ushbu misraning kuchliroq ohang bilan aytishiga xizmat qilgan:

*Mardlar singari, Jambil  
Tomonga boshlab yo'i  
To'p bo'shatib jo'nadi.  
Yo'lma-yo' l va ko'lma-ko' l  
Manzillarda tunadi.*

*Yana turib jo'nadi.* [5; 127]

Bandda "yo'lma-yo'l", "qo'lma-qo'l" so'zlarining takror qo'llanishi mavjud. Bu takror misra doirasida yuzaga kelgan. Dastlabki "yo'lma-yo'l" so'zida yo'l-yo'lakay, ma'lum bir harakat mobaynida ma'nosini ifodalagan bo'lsa, takror qo'llangan "qo'lma-qo'l" takroriy so'zida ma'no kengaytirilgan. Ular birgalikda ma'noni kuchaytirgan.

Hamid Olimjon she'riyatida mukarrar takrori, asosan, bayt va band doirasida ko'proq kuzatilgan. "Tayyor traktor", "So'ngra kular" kabi she'rlarida, "Semrug", "Zaynab va Omon" dostonlarida bayt doirasidagi takrorlar mavjud bo'lsa; "Kech nash'asi", "Kuz qo'yniga kirganda" she'rlarida, "Oygul bilan Baxtiyor" dostonida band doirasidagi takrorlar kuzatiladi. Har ikkala holatda ham takroriy so'zlarining uslubiy vazifasi band asosida kelib chiqadi. Sho'ir she'riyatida bandlar asosan to'rt misradan iborat.

2. Hamid Olimjon she'riyatida mukarrar san'atining bayt doirasidagi takrori quyidagicha ko'rinishga ega.

a) Birinchi misra boshida kelgan takroriy so'z ikkinchi misra boshida takror keladi yoki ikkinchi misra boshida boshqa shakldagi takroriy so'z qo'llaniladi.

*Yana yurdi biroz,  
Oxir dev chiqdi peshvoz.  
Sekin-sekin yurardi,  
Qah-qah urib turardi.* [5; 187.]

Ushbu bandning uchinchasi va to'rtinchasi misralarida takroriy so'zlar – "sekin-sekin, qah-qah" qo'llanilib, muqarrarni yuzaga keltirgan. Banddagi takror holatni ta'kidlashga hizmat qilgan

va uning ketma-ketligini ifoda qilyapdi. "Tayyor traktor!" she'ning quyidagi bandida ham takroriy so'zning shunday uslubiy vazifada kelganini ko'ramiz.

*Tiqir-tiqir kechayotir yuk vagonlari,*

*Tiqir-tiqir kechayotir uzun o'q kabi,*

*Parovozning o'qiday yongan laxcha ko'zlar. [4, 130.]*

b) birinchi misra boshida va ikkinchi misra o'rtasida takroriy so'zlar qo'llanadi.

*Tiqir-tiqir kechayotir yuk vagonlari,*

*Kechayotir tiqir-tiqir uzun o'q kabi,*

*Parovozning yozib qo'ygan o't ko'zlariga:*

*Qat'iy yilning ko'klamiga tayyor traktor!!! [4, 129]*

Bandda "tiqir-tiqir" takroriy so'zining takror qo'llanilishi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Kitobxon diqqatini jalb etgan. Mukarrar takrori bilan tardu aks takrori bir-biriga bog'liq holda uslubiy vazifa bajargan.

c) Banddag'i ketma-ket ikkita misraning o'rta qismida takroriy so'zlar qo'llaniladi.

*Hali qancha-qancha malomat,*

*Hali qancha-qancha hasratlar*

*Yosh qalbimga bo'lurlar mehmon.*

*Hali qancha qayg'ular,dardlar,*

*Hiddat bilan so'zon qilur jon. [5, 138.]*

Yoki:

*Har kichik parchalarda birlashalar,*

*Har to'siglarni yanchalar, oshalar.*

*Yel-da yelpib, o'pib-o'pib esadi,*

*So'ngra kunlar kulib-kulib o'tadi. [4, 80]*

Berilgan har ikkala banddag'i takror so'zlarda ma'no bo'rttirilgan va kuchaytirilgan.

d) birinchi misra o'rtasida va ikkinchi misra boshida takroriy so'zlarning qo'llanilishi.

*Omon uzoq-uzoq qoldi jum,*

*Bo'g'iq-bo'g'iq nafas oldi jum.*

*Oxir boqib qizning yuziga,*

*Jon ohuvchi qora ko'ziga,*

*O'tmishini ayladi bayon,*

*Kim ekanin ayladi ayon [5, 157]*

Bandda qo'llanilgan birinchi takroriy so'zda vaqt bilan bog'liq ma'no kuchaytirilsa, ikkinchisida ma'lum holat bilan bog'liq ma'noda qahramon holatini ifodalashga xizmat qilgan.

3. Hamid Olimjon she'riyatida takroriy so'zlarning band (asosan to'rtlik) doirasida qo'llanib turli uslubiy vazifa bajarishi ham kuzatiladi.

*Ariq-ariq siv kabi,*

*Oq changlar-tolg'a-tolg'a.*

*Yo'lovchilar kelardi'*

*Tebranib olg'a-olg'a ... [4, 51]*

Band (to'rtlik)ning birinchi (ariq-ariq), ikkinchi (tolg'a-tolg'a), to'rtinchchi (olg'a-olg'a) misralarida takroriy so'zlar qo'llanilgan.

Bu takrorlar ohangdoshlikni, musiqiylikni yuzaga keltirgan. O'xshatish asosida ma'no kuchaytirilgan.

Quyidagi bandda yani o'ziga xos uslubiy vazifa ifodalangan.

*Gumrohlardek bulutlarning ko'zlar,*

*Tasbih kabi dona-dona yosh to'kdi.*

*Tilanchilar ko'ylagidek yirtildi,*

*Og'achlardan parcha-parcha yaproqlar. [4, 101]*

Bandda ikkinchi va to'rtinchchi misralarda takroriy so'zlar mavjud. She'ming asosiy g'oyasi shu bandga singdirilgan. Banddag'i mukarrar, o'shatish, istiora o'zaro qorishish holda

bir-birini to'ldirib kelgan. Yomg'irning yog'ishini "yosh to'kdi" istiorasi bilan ifodalangan bo'lsa, yomg'ir yog'ishidagi holat tasbihiga o'xshatilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, A.Hojjahmedov ta'kidlaganidek, mukarrar lafz raddul ajuz al-assadr san'atiga o'xshab bayt misralarining turli o'rinalarda qo'llanishi mumkin. [1; 102]

Umuman olganda, Hamid Olimjon she'riyatida mukarrar takrori maqsadli qo'llangan. Shoir she'riyatida takroriy so'zlarning qo'llanishi salmoqli bo'lib, bularning barchasi badiiylik uchun xizmat qilgan. Takroriy so'z sifatida asosan, ot, sifat, fe'l so'z turkumidagi so'zlardan ko'proq foydalanilgan.

#### Adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999. – B. 100.
2. Husayniy Atoullohd Badoyi'u-s-sanoyi' / Forschadan A.Rustamov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san'at, 1981. – B. 174.
3. Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroniy so'zlar. – T.: O'zfananakdashr, 1963. – B. 88.
4. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami: O'n jildli. – T.: Fan, 1979. – 1-jild. – B. 404.
5. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami: O'n jildli. – T.: Fan, 1979. – 2-jild. – B. 228.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada badiiy asarda qo'llangan takrorlar, xususan, Hamid Olimjon she'riyatida qo'llangan takrorlarning semantik-stilistik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Hamid Olimjonning takrordan, jumladan, mukarrar takrorida foydalanish mahoratini yoritishga harakat qilindi.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются семантико-стилистические особенности повторов, используемых в художественном произведении, в частности, повторов, используемых в поэзии Хамида Олимджона. Также была предпринята попытка пролить свет на способность Хамида Олимджона использовать повторение, в том числе мухаррар повторение.

#### SUMMARY

The article discusses the semantic-stylistic features of repetitions used in the artistic work, in particular, the repetitions used in the poetry of Hamid Olimjon. Also, an attempt was made to shed light on Hamid Olimjon's ability to use repetition, including "repetitive" repetition.

## KINSHIP TERMS AND TEKNONYMY

Fayzimatova N.  
KSPI, Teacher

**Tayanch so'zlar:** qarindoshlik, leksiklashtirilgan kategoriyalar, oila, teknonomiya, ethnograf.

**Ключевые слова:** родство, лексикализованные категории, семья, текнонимия, этнограф.

**Key words:** kinship, lexicalized categories, family, teknonymy, ethnograph.

Kinship terms are words used in a speech community to identify relationships between individuals in a family (or a kinship unit). This is also called kinship terminology. A classification of persons related through kinship in a particular language or culture is called a kinship system. "Some of the clearest examples of lexicalized categories are words used to refer to people who are members of the same family, or kinship terms. All languages have kinship terms (e.g. brother, mother, grandmother), but they don't all put family members into categories in the same way. In some languages, the equivalent of the word father is used not only for 'male parent,' but also for 'male parent's brother.' In English, we use the word uncle for this other type of individual. We have lexicalized the distinction between the two concepts. Yet we also use the same word (uncle) for 'female parent's brother.' That distinction isn't lexicalized in English, but it is in other languages." "There may be certain difficulties, of course. You can ask a particular person what he or she calls others who have known relationships to that person, for example, that person's father (Fa), or mother's brother (MoBr), or mother's sister's husband (MoSiHu), in an attempt to show how individuals employ various terms, but without trying to specify anything concerning the semantic composition of those terms: for example, in English, both your father's father (FaFa) and your mother's father (MoFa) are called grandfather, but that term includes another term, father. You will find, too, in English that your brother's wife's father (BrWiFa) cannot be referred to directly; brother's wife's father (or sister-in-law's father) is